“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy muhofazasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Bexzod Baxtiyorov,
Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti Toshkent shahar, Shayhontoxur tumani bo‘limi katta tezkor vakili
e-mail: b.baxtiyorov@gmail.com

Аннотация. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi va boshqa davlatlarning prokuraturalari xodimlarining ijtimoiy himoyasiga oid qonunchiligi va amaliyoti tahlil etilib, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.Shuningdek, muallif tomonidan prokuratura organlarida xizmatni o‘tashning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat huquqiy munosabatlari jarayonida ijtimoiy himoyani huquqiy ta’minlash choralari tadqiq etiladi.

Калит сўзлар. prokuratura organlarida xizmat, prokuratura xodimlarining ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy ta’minot

Аннотация. В статье анализируются законодательство и практика Республики Узбекистан по социальной защите работников органов прокуратуры и социальная защита работников органов прокуратуры других стран, а также даются предложения по совершенствованию законодательства.Также автором исследуются меры правового обеспечения социальной защиты в процессе трудовых правоотношений с учетом специфики прохождения службы в органах прокуратуры.

Ключевые слова. служба в органах прокуратуры, социальная защита работников прокуратуры, социальное обеспечение

Annotation. The article analyzes the legislation and practice of the Republic of Uzbekistan on social protection of employees of prosecutorial bodies and social protection of employees of prosecutorial bodies of other countries, and also provides proposals for improving the legislation.The author also examines the measures of legal support for social protection in the process of labor relations, taking into account the specifics of service in the prosecutor's office.

Keywords. service in the prosecutor's office, social protection of prosecutor's office employees, social security

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlari xodimlarining mas’uliyatli mehnatlari inobatga olinib, davlat tomonidan bir qator ijtimoiy himoyasi kafolatlangan. “Prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi» deganda olimlar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, A.S. Svishyeva prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy ta’minoti to‘g‘risida fikr bildirib, uning fikriga ko‘ra, moddiy ta’minot ham ijtimoiy himoya turi sifatida qayd etiladi[1]. Agar biz prokuratura organlari xodimlariga moddiy ta’minot sifatida beriladigan maxsus kiyim boshlarni nazarda tutadigan bo‘lsak, bu aynan ijtimoiy himoya deyishga asos bo‘lmaydi. Lekin, “Moddiy va ijtimoiy” ta’minlash prokuror xodimlariga ularning mehnat tabiatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bu prokuratura organlari xodimlari xodimlarining mehnati mas’uliyat talab etishi, ish vaqtini chegaralanmaganligi, mehnat faoliyatida asab, ruhiy va jismoniy yuklamalarning mavjudligi, maxsus ish tartibi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda xizmat majburiyatlarini ish vaqtidan tashqari, hatto dam olish va bayram kunlarida ham bajarishni talab qilishi ularni mehnatini oddiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilishni kafolatlaydi.

A.V. Stremouxov ta’kidlaganidek, ijtimoiy-huquqiy himoya bu ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni huquqiy vositalar orqali muhofaza qilishdir[2:33]. X.X. Loyt esa ijtimoiy-huquqiy himoyani vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning davlat-hokimiyat va boshqaruv faoliyati sifatida tavsiflaydi[3:222]. Bu faoliyat davlat xizmatchisi sifatida xodimning huquqlarini iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy vositalar orqali amalga oshirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Yuqoridagi olimlarning fikriga qo‘shilgan holda “prokuratura xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni faqat kiyim-kechak, pullik ta’minot va pensiya bilan ta’minlash orqali chegaralash mumkin emas” degan fikrni ilgari surish mumkin.

Shuningdek, “Prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy muhofazasi bu - prokuratura organlari xodimlarini davlat tomonidan nafaqat moddiy qo‘llab quvvatlash, balki ularni ijtimoiy huquqlarini har tomonlama ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdir” – degan ta’rifni ilgari surish maqsadga muvofiq. Chunki, bugungi kunda prokuratura organlarining ijtimoiy himoyasi deganda ularga beriladigan qo‘shimcha to‘lovlar, maxsus kiyim bosh bilan ta’minlash, uy joylar uchun ipoteka kreditlari berish, imtiyozli ta’tillar berilishi, darajali unvonlar berilishi, uzoq muddatli mehnatlariga ustamalar berilishi, davlat majburiy sug‘urtaga olinishi nazarda tutiladi. Lekin, prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy muhofaza jumlasi juda keng ma’noda tushunilib, unda prokuratura organlari xodimlarini sog‘ligini tiklashga doir, bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga joylashtirish bilan bog‘liq imkoniyatlarni yaratish, o‘z mehnat vazifalarini bajarishda jamoat transportlaridan tekin foydalanish kabi ijtimoiy muhofaza turlarini ham nazarda tutish lozim.

Prokuratura organlarinig ijtimoiy muhofazasi har bir davlatda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Xususan, Ozarbayjon Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni 36-moddasida prokuratura xodimlarining ijtimoiy muhofazasi qayd etilgan. Mazkur moddaga ko‘ra, prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy muhofazasi sudlar uchun belgilangan qonunchilikdagi normalarga, shuningdek “Prokuratura organlarida xizmat o‘tash to‘g‘risida”gi qonunga asosan amalga oshirilishi belgilangan. Harbiy prokuratura xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi esa Ozarbayjon Respublikasining harbiy xizmatchilari uchun belgilangan qonun normalariga ko‘ra amalga oshiriladi[4]. Ozarbayjon Respublikasining qonunchiligi shu joyda O‘zbekiston Respublikasidan farq qilishini e’tiborga olish lozim. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasida harbiiy prokuratura bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining tarkibiy tarmog‘i bo‘lib, harbiy prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy muhofazasi ham prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy muhofazasini tartibga solishga doir qonunlar belgilangan tarzda amalga oshiriladi.

Rossiyada esa prokuratura organlari xodimlari majburiy pensiya sug‘urtasiga to‘liq jalb qilinmaydi va ular pensiya bilan ta’minlanishi harbiy xizmatni o‘tagan shaxslarni pensiya bilan ta’minlash to‘g‘risidagi Rossiya Federatsiyasi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Prokuratura organlarida faoliyat yuritayotgan shaxslarning ijtimoiy muhofaza qilish ular (ayrim hollarda – oila a’zolari ham) bilan davlat organi o‘rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi.

Prokuratura organlari xodimlarini ijtimoiy ta’minlash va ijtimoiy muhofazasini tavsiflovchi bir qator xususiyatlarni ajratish mumkin.

Jumladan, prokuratura organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning asosiy maqsadi-prokuratura organlari xodimlarining munosib xizmat sharoitlarini ta’minlash, ularning xizmatga qiziqishini oshirish, ortiqcha psixologik va jismoniy yuklamalar, xizmat cheklovlari hamda ijtimoiy xatarlar oqibatlarini qoplashdir[5].

Shuningdek, prokuratura xodimlarini ijtimoiy himoya qilish maxsus moliyaviy manbalar hisobidan amalga oshirilishini ham qayd etish zarur.

Bundan tashqari, prokuratura xodimlarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarining me’yoriy-huquqiy mustahkamlanishiga ham e’tibor qaratish kerak.

Faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ayrim ijtimoiy himoya choralari muayyan ijtimoiy xatarlar yuzaga kelishidan qat’i nazar amalga oshiriladi. Masalan, pullik ta’minot, kiyim-kechak bilan ta’minlash kabilar. Boshqa choralar esa faqat ushbu xatarlar yuzaga kelganda qo‘llaniladi. Ya’ni, prokuratura organlari xodimlariga sug‘urta to‘lovlarini to‘lash, ularning faoliyati bilan bog‘liq sug‘urta hodisalari vujudga kelganda beriladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonuni 50-51-moddalaridagi «yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetkazilganida» degan jumlalarda aynan qanaqa shikast yetkazilishi nazarda tutilganligi mavhum bo‘lib qolgan. Bu albatta mazkur modda talabini ijro etishda muammolar va ikkilanishlar keltirib chiqaradi. Bu tushuncha xodimlar o‘z vazifalarini aynan bajarmayotgan bo‘lsa-da, o‘zini kasbi bilan bog‘liq bo‘lmagan shikastlar nazarda tutiladi. Masalan, xodimning ishga kelib ketishi bilan bog‘liq yetkazilgan shikastlar, unga nisbatan ish faoliyati bilan bog‘liq holda boshqa shaxslarning qasddan qilgan hatti harakatlari natijasida yetkazilgan zararlar tushuniladi. Shu jihatdan yuqorida qayd etilgan «yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetkazilganida» degan jumlani qonunchilikda aniq ifoda etish lozim. Ushbu jumlani “ish joyidan tashqarida, lekin mehnat faoliyati bilan bog‘liq yetkazilgan boshqa shikastlar” degan mazmunda berilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, O‘zbekistonda prokuratura organlari xodimlarining sog‘lig‘i va hayoti davlat majburiy sug‘urtasi orqali himoya qilinishi belgilangan bo‘lsada, mazkur sug‘urta qanday amalga oshirilishi va huquqiy tartibga solishga doir alohida normativ huquqiy hujjat mavjud emas. Lekin, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-oktabrdagi 879-son qarori bilan “Sudyalarning hayoti va sog‘lig‘ini davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi Nizom, 2010-yil 28-dekabrdagi 321-sonli qarori bilan «Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog‘ligini davlat majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi nizom taqdiqlangan[6]. Lekin, prokuratura organlari xodimlarining majburiy sug‘urtasini amalga oshirishga doir bunday normativ huquqiy hujjat mavjud emas.

Boshqa davlatlarning amaliyotiga e’tibor qaratsak, xususan Rossiya federatsiyasida bosh prokurorning 2010-yil 15-apreldagi 165-son buyrug‘i bilan “Rossiya prokuratura organlarining prokurorlari o‘z xizmat faoliyati bilan bog‘liq holda vafot etgan, tan jarohati olgan yoki sog‘ligiga boshqa zararlarni qoplash haqida”gi instruksiyasi tasdiqlangan[7]. Moldovada esa Respublika Prezidentining 5 mart 2008 yildagi N 149 sonli qarori bilan «Prokuratura organlari xodimlarining majburiy sug‘urtasi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlangan[8].

Shuningdek, 1998-yil 24-iyuldagi №125-FZ «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risida»gi Federal qonunda mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslar sug‘urtalanganlar qatoriga kiritilgan bo‘lsa-da, 1992-yil 17-yanvardagi №2202-1 «Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi to‘g‘risida»gi Federal qonunda prokurorlar uchun davlat shaxsiy majburiy sug‘urtasi nazarda tutilgan.

Agar prokuror xizmat davrida yoki ishdan bo‘shaganidan keyin, uning xizmat faoliyati bilan bog‘liq jarohat yoki boshqa salomatlikka yetkazilgan zarar natijasida vafot etsa, davlat sug‘urta organlari uning merosxo‘rlariga o‘rtacha oylik pullik ta’minotining 180 baravari miqdorida sug‘urta to‘lovlari amalga oshiriladi.

O‘zbekistonning «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonuni 51-moddasida prokuratura organlari xodimlarining hamda ularning oila a’zolarining ijtimoiy himoyalash choralari berilgan. Unga ko‘ra, prokuratura organlari xodimlarining hayoti va sog‘lig‘i davlat himoyasida bo‘ladi hamda respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan davlat majburiy tartibda sug‘urtalanadi.

Mazkur moddada davlat sug‘urta organlarining sug‘urta summalarini to‘lash tartibi belgilangan.

Jumladan, mazkur moddaning birinchi qismida agar prokuratura organlari xodimi ishlayotgan davrida yoki prokuratura organlaridan bo‘shatilganidan keyin halok bo‘lsa (vafot etsa), agar bu hol u o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki sog‘lig‘ining boshqacha shikastlanishi oqibatida ro‘y bergan bo‘lsa, uning merosxo‘rlariga – O‘zbekiston Mehnat kodeksi 194-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan miqdorda bir martalik to‘lovni amalga oshirish tartibi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan bo‘lib, yangi tahrirdagi mazkur kodeksning 194-moddasi ish kuni(smena) qismlarga bo‘lingan ish vaqti rejimini ifodalaydi[9]. Oldingi tahrirdagi Mehnat kodeksining 194-moddasida xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan bir yo‘la beriladigan nafaqaning miqdori belgilangan. Unga ko‘ra, xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la beriladigan nafaqaning miqdori jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma tuzilmagan bo‘lsa, – ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanishi qayd etilgan.

Bunda xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan bir yo‘la beriladigan nafaqaning miqdori jabrlanuvchining yillik ish haqidan, xodimning vafoti munosabati bilan bir yo‘la beriladigan nafaqaning miqdori esa, marhumning olti yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Demak, ayni vaqtda eski tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 194-moddasi mazmuni Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 230-moddasida o‘z ifodasini topganligi sababli O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunining 50-moddasidagi “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 194-moddasi” degan jumlani “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 230-moddasi” degan jumla bilan almashtirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini rivojlangan davlatlarning qonunchiligi va amaliy tajribasini qiyosiy o‘rgangan holda takomillashtirish muhim masala hisoblanadi. Ya’ni, bugungi kunda prokuratura organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish maqadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Prokuratura organlari xodimlarining davlat

majburiy sug‘urtasini amalga oshirish to‘g‘risida»gi Nizomini ishlab chiqish lozim. Bu prokuratura organlari xodimlarining o‘z mehnat vazifalarini bajarishlari bilan bog‘liq yetkazilgan zararlarni qoplash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Адабиётлар рўйхати

1. А.С. Свищева.Социальное обеспечение лиц осуществляющих деятельность в органах и организация прокуратуры. Scientific Cooperation Center «Interactive plus».
2. Стремоухов А.В. Человек и его правовая защита. Теоретические про блемы / А.В. Стремоухов. – СПб., 1996. – С. 33.
3. Лойт Х.Х. Россияда давлат кадрлар сиёсати ва унинг ички ишлар органларида амалга оширилиши (тарихий ва ташкилий-ҳуқуқий жиҳат): юрид. фан. докт. дисс. – СПб., 1998. – Б. 222.
4. Закон “О прокуратура” Республики Азербайджан (7 декабря 1999), https: // republic.preslib.az/ru_d4-67.html
5. С.Свищева.Социальное обеспечение лиц осуществляющих деятельность в органах и организация прокуратуры. Scientific Cooperation Center «Interactive plus».
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 27 октябрдаги 879-сон қарори билан тасдиқланган «Судьяларнинг ҳаёти ва соғлиғини давлат томонидан мажбурий суғурта қилиш тўғрисида»ги Низом, 2010 йил 28 декабрдаги 321-сонли қарори билан «Давлат суд экспертларининг ҳаёти ва соғлигини давлат мажбурий суғурта қилиш тўғрисида»ги Низом https://lex.uz/docs/106197?ONDATE2=12.04.2023&action=compare
7. Россия федерациясида бош прокурорнинг 2010 йил 15 апрелдаги 165-сон буйруғи билан “Россия прокуратура органларининг прокурорлари ўз хизмат фаолияти билан боғлиқ ҳолда вафот этган, тан жароҳати олган ёки соғлигига бошқа зарарларни қоплаш ҳақида”ги инструкцияси. иhttps: // base.garant.ru / 10164358/.
8. Молдовада Республикаси Президентининг 5 март 2008 йилдаги N 149 сонли қарори билан тасдиқланган «Прокуратура органлари ходимларининг мажбурий суғуртаси тўғрисида»ги Низом. иhttps: // base.garant.ru / 10164358/
9. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон)